

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/04.06.2021.Fil.72.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

DENOV TADBIRKORLIK VA PEDAGOGIKA INSTITUTI

SAITOV SUXROB DJUMAYDILLAYEVICH

**O.GENRI IJODI VA O‘ZBEK HIKOYACHILIGIDA INSONIY
TAQDIRLAR, SHAXS VA JAMIYAT MUNOSABATLARIDAGI
MUSHTARAKLIK**

10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog‘ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik

**FILOLOGIYA FANLARI bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi
Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по филологическим наукам
The contents of the dissertation abstract for a Doctor of Philosophy (PhD) in Philology

Saitov Suxrob Djumaydillayevich

O.Genri ijodi va o'zbek hikoyachiligida insoniy taqdirlar, shaxs va jamiyat munosabatlaridagi mushtaraklik3

Саитов Сухроб Джумайдиллаевич

Общность человеческих судеб, отношений личности и общества в творчестве О.Генри и узбекском повествовании23

Saitov Sukhrob Djumaydillaevich

The Commonality of Human Destinies, Personal and Social Relations in the works of O.Henry and Uzbek Storytelling43

Эълон қилинган ишлар рўйхати

Список опубликованных работ
List of published works.....47

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/04.06.2021.Fil.72.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

DENOV TADBIRKORLIK VA PEDAGOGIKA INSTITUTI

SAITOV SUXROB DJUMAYDILLAYEVICH

**O.GENRI IJODI VA O‘ZBEK HIKOYACHILIGIDA INSONIY
TAQDIRLAR, SHAXS VA JAMIYAT MUNOSABATLARIDAGI
MUSHTARAKLIK**

10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog‘ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik

**FILOLOGIYA FANLARI bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida №B2024.1.PhD/Fil4474 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Denov tadbirkorlik va pedagogika institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.buxdu.uz) va "Ziyonet" Axborot ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar: **G'aniyev Ilhom Muzaffarovich**
filologiya fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar: **Mo'minov Fayzullo Abdullayevich**
filologiya fanlari doktori, professor

Kasimova Rano Raxmatullayevna
filologiya fanlari doktori, dotsent

Yetakchi tashkilot: **Samarqand davlat universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Buxoro davlat universiteti huzuridagi DSc.03/04.06.2021.Fil.72.03 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil «27» mart soat 09⁰⁰ dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 200118, Buxoro shahri, M.Iqbol ko'chasi, 11-uy. Tel.: (0 365) 221-29-14; faks: (0 365) 221-57-27; e-mail: buxdu_rektor@buxdu.uz)

Dissertatsiya bilan Buxoro davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (588 raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 200118, Buxoro shahri, M.Iqbol ko'chasi, 11-uy. Tel.: (0 365) 221-25-87.)

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil «28» fevral kuni tarqatildi.

(2025-yil «28» fevral dagi 25-01 - raqamli reestr bayonnomasi.)



D.S.O'rayeva

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi,
filologiya fanlari doktori, professor

Z.I.Rasulov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash ilmiy
kotibi, filologiya fanlari doktori, professor

F.M.Xajiyeva

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash qoshidagi
ilmiy seminar raisi, filologiya fanlari doktori,
professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon adabiyotshunosligida bugungi yangi O‘zbekistonni yuksaltirish, Uchinchi Renessansga poydevor qo‘yish kabi g‘oyatda keng miqyosli va muhim vazifalarni amalga oshirish jarayonida xorijiy davlatlar bilan o‘zaro aloqalarning rivoji, jumladan, adabiyotshunosligida milliy nasr taraqqiyotidagi adabiy ta’sir, mushtaraklik, o‘xshashliklar komparativistik metod asosida ilmiy nazariy, qiyosiy-tipologik jihatdan izchil o‘rganilib kelinmoqda. Ayniqsa, ingliz va o‘zbek adabiyotidagi ijodkor ijtimoiy-estetik ideali, umuminsoniy g‘oyalar, falsafiy qarashlar, insoniy taqdirlar, shaxs va jamiyat munosabatlaridagi paradoksal holatlarni tadqiq hamda talqin etish, AQSH kabi qudratli davlat adabiyoti namunalari bilan yaqindan tanishish o‘zbek o‘quvchisining badiiy-adabiy tafakkurini, ma’naviy-axloqiy negizlarini, umuminsoniy qadriyatlarini yuksaltirish, tasvir va tushunchalardagi o‘xshashlik, individuallikni qiyosiy o‘rganish va ilmiy asoslashga xizmat qiladi.

Dunyo hikoyachiligida insoniy taqdirlar, shaxs hamda jamiyat munosabatlari, badiiy obrazlarning nazariy asoslari, adabiy ta’sir va mushtaraklik xususiyatlari, Amerika adabiyoti, hikoyachilik maktabi va O.Genri hikoyalari xos poetik takomil masalalari, syujetning o‘ziga xosligi, uslub, obrazlar dunyosi, psixologik tahlil muammolari masalalariga oid tadqiqotlar amalga oshirilgan. Jahon hikoyachiligida o‘ziga xos maktab yaratgan O.Genri ijodini milliy nasr namunalari bilan qiyoslash, uning asarlaridagi qahramonlarning o‘zbek adabiyotidagi personajlar bilan adabiy, g‘oyaviy-badiiy hamohanglik tamoyillarini aniqlash, O.Genri ijodiga xos realistlik obrazlarning o‘zbek adabiyotidagi o‘xshash tiplari faoliyatini ko‘zdan kechirish, inson omilini, uning boy va murakkab olamini tasvirlashdagi psixologik san’atkorlik qirralarini asoslashda muhim ilmiy-nazariy ahamiyat kasb etadi.

Mamlakatimizda keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilayotgan bugungi kunda barcha sohalar kabi qiyosiy adabiyotshunoslik ham davr talabiga muvofiq tadqiqotlar bilan boyitilib, uning ilmiy-nazariy va amaliy-kontseptual asoslarini mustahkamlash ustuvorlik kasb etmoqda. Mamlakatimiz Prezidenti Sh. Mirziyoyev ta’kidlaganlaridek “Adabiyot va san’atga, madaniyatga e’tibor – bu, avvalo, xalqimizga e’tibor, kelajagimizga e’tibor”¹dir. O‘zbek adabiyoti vakillari A.Qahhor, X.Sulton, N.Eshonqul, I.Sulton ijodini O.Genri hikoyalari bilan jahon adabiyoti kontekstida qiyosiy o‘rganish milliy tafakkur taraqqiyoti bosqichlarini umumlashtirishda, ijtimoiy-estetik ideal, ma’naviy-axloqiy muammolar, paradoksal holatlar, shaxslar ruhiyatidagi evrilishlarni ilmiy tadqiq qilishga xizmat qiladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-son “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”, 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi

¹ Мирзиёев Ш. Адабиёт ва санъат, маданиятни ривожлантириш – халқимиз маънавий оламини юксалтиришнинг мустақкам пойдеворидир. // Халқ сўзи, 2017 йил, 4-август.

to'g'risida", 2023-yil 11-sentyabrdagi PF-158-son "O'zbekiston – 2030" strategiyasi to'g'risidagi farmonlari, 2017-yil 17-fevraldagi PQ-2789-son "Fanlar akademiyasi faoliyati, ilmiy tadqiqot ishlarini tashkil etish, boshqarish va moliyalashtirishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2018-yil 5-iyundagi PQ-3775-son "Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida", 2021-yil 19-maydagi PQ-5117-son "O'zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o'rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli qator me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Tadqiqot respublika fan-texnologiyalar hamda innovatsion rivojlanishning I. "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish" ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Jahon adabiyotshunosligida Amerika adabiyoti hamda O.Genri ijodiga bag'ishlangan tadqiqotlar anchagina. O.Genri va uning ijodi, xususan, hikoyachilik maktabi olimlar tomonidan turli rakurslarda o'rganilgan. Amerika adabiyoti, hikoyachilik maktabi va O.Genri hikoyalariga xos poetik takomil masalalari, syujetning o'ziga xosligi, uslub, obrazlar dunyosi, psixologik tahlil muammolari, kutilmagan yechim kabi masalalar XX asrning o'rtalaridan boshlab dunyo tadqiqotchilari tomonidan qiyosiy, ilmiy-nazariy nuqtayi nazardan yetarlicha tadqiq etilgan².

² Аникст Л. О. Генри // О. Генри. Рассказы. – М., 1957. – С. 539-550. Золотаревская Ф. Х. О. Генри и его новеллы. – М., 1991. – 588 с. Левидова И. М. Калиф из Багдада. О. Генри и его новелла. – М.: Центр книги Рудомино, 2012. – 254 с. О. Генри. Короли и капуста. Рассказы: пер. с англ. / вступ. статья А. Аникста. – М.: Худож. лит., 1983. – 334 с. О. Генри. Избранные произведения. – Лениздат, 1976. – С. 3-18. Сибирцева Е. И. Элементы сказочного дискурса в рассказах О. Генри // Вестник Вятского государственного гуманитарного университета. – 2009. – Т. 2. – № 4. – С. 170-173. Томашевский Б. В. Теория литературы: поэтика. – Аспект-пресс, 1996. – 243 с. Хужаева З. Х. Мопассан-новеллист // Молодой ученый. – 2017. – № 12. – С. 664-666. Эйхенбаум Б. М. О. Генри. Собрание сочинений. Т. 4. – М.: Госиздат, 1975. – С. 198. Эйхенбаум Б. М. О. Генри и теория новеллы [Электронный ресурс] // Б. М. Эйхенбаум. Литература: Теория. Критика. Полемика. – Л.: Прибой, 1927. – С. 166-209. – Режим доступа: <http://littera.websib.ru/volsky/1387> (дата доступа: 30.09.2017). Балдицын П.В. Развитие американской новеллы. О. Генри // История литературы США. Литература начала XX в. Т. 5. М.: ИМЛИ РАН, 2009. Бахтин М.М. Слово в романе // Вопросы литературы и эстетики. Исследования разных лет. М.: Художественная литература, 1975; Бахтин М. М. Из архивных записей к работе «Проблемы речевых жанров» // Собрание сочинений: В 7 т. Т. 5: Работы 1940-х — начала 1960-х гг. М.: Русские словари, 1997; Волошинов В.Н. "Рец. на книгу" В.В. Виноградов «О художественной прозе» // Бахтин М.М. (под маской). Фрейдизм. Формальный метод в литературоведении. Марксизм и философия языка: Статьи. М.: Лабиринт, 2000; Драйзер Т. Великий американский роман // Писатели США о литературе. Т. 2. М.: Прогресс, 1982; Левидова И.М. О. Генри и его новелла. М.: Художественная литература, 1973; Мелетинский Е.М. Историческая поэтика новеллы. М.: Наука, 1990; Оленева В.И. Современная американская новелла. Проблемы развития жанра. Киев: Наукова думка, 1973.; Шиллер Ф. Письма об эстетическом воспитании человека // Собр. соч.: В 7 т. Т. 6. М.: Художественная литература, 1957.; Эйхенбаум Б.М. О. Генри и теория новеллы // Литература: Теория. Критика. Полемика. Л.: Прибой, 1927.; Жданова Д. А. Язык, жизнь и игра в новеллах О. Генри // Вестник Московского университета. Сер. 10, Журналистика. – 2012. – № 1. – С. 113-129. (1 а. л.); Жданова Д. А. Мотив коловращения в языке новелл О. Генри // Медиаскоп. – Выпуск № 1. – 2012. – <http://www.mediascope.ru/node/1031>. – 0421200082\0002. (1 а. л.); Жданова Д. А. Избыточность стиля и компрессия текста в новеллах О. Генри: авторская техника и эстетический эффект // Филологические науки. – 2011. – № 6. – С. 26-35. (0,6 а. л.); Жданова Д. А. Парадокс

Qiyosiy adabiyotshunoslik, adabiy ta'sir va mushtaraklik muammosini muayyan xalq adabiyoti va ayrim adiblar ijodi materialida M.K.Bronich, A.V.Vashenko, V.M.Tolmachev, M.V.Tolstanova, X.Blum, X.Bxaba, I.M.Udler, T.K.Sinsadze, A.A.Gugin, V.B.Zemskov, A.F.Kofman, V.N.Kuteyshikova, J.Benito, L.P.Zamor, B.Kuper, L.Lil singari o'nlab adabiyotshunos olimlar, katta-kichik tadqiqotchilar tomonidan o'rganilgan. Mavzuga oid dissertatsiya, monografiya, risola va maqolalar e'lon qilingan.³

Bu kabi ishlarda qiyosiy adabiyotshunoslik, adabiy ta'sir va mushtaraklik xususiyatlari tavsiflangan va konkret adabiy asarlar materialida turli nuqtai nazardan tadqiq etilgan. Qolaversa, o'zbek olimlari va yosh tadqiqotchi adabiyotshunoslari tomonidan ham qiyosiy adabiyotshunoslik masalalariga oid katta-kichik tadqiqotlar amalga oshirilgan.⁴

Shuningdek, o'zbek hikoyachilik maktabi va o'zbek yozuvchilari poetik mahorati, hikoyalardagi badiiy til va uslub masalalari, adabiy ta'sir va o'xshashliklar, syujet tarkibiy qismlari, obrazlar masalasi, detal va tasvir munosabatlari adabiyotshunosligimizda o'tgan asrdan buyon o'rganilib kelinmoqda⁵. Bu ishlar orasida A.Qahhor, X.Sultonov, N.Eshonqul, I.Sulton asarlariga bag'ishlangan talaygina tadqiqotlar ham amalga oshirilgan.⁶

и антитеза как сюжетобразующие приёмы новелл О. Генри. Материалы Международного молодёжного научного форума «ЛОМОНОСОВ-2012» / Отв. ред. А. И. Андреев, А. В. Андриянов, Е. А. Антипов, М. В. Чистякова. [Электронный ресурс] – М.: МАКС Пресс, 2012. – 1 электрон. опт. диск (DVD-ROM). (0,2 а. л.); Жданова Д. А. Приёмы фоностилистики в новеллах О. Генри // Материалы Международного молодёжного научного форума «ЛОМОНОСОВ-2011» / Отв. ред. А. И. Андреев, А. В. Андриянов, Е. А. Антипов, М. В. Чистякова. [Электронный ресурс] – М.: МАКС Пресс, 2011. – 1 электрон. опт. диск (DVD-ROM). (0,2 а. л.); pattee F. L. The Age of O. Henry // Side-lights on American Literature. – N. Y.: The Century Co., 1922. Его же: O. Henry and the Handbooks // The Development of the American Short Story: An Historical Survey. – N. Y.: Harper and Row, 1923.; Драйзер Т. Великий американский роман // Писатели США о литературе. – М.: Прогресс, 1982. – Т. 2. – С. 6

³ Масалан, қ.: Кутейщикова В.Н. Новый латиноамериканский роман / Кутейщикова В.Н., Осповат Л.С. М.: Сов. писатель, 1983. – 424 с.; Мелетинский Е.М. От мифа к литературе / М.: РГГУ, 2001. – 169 с.; Мелетинский Е.М. Поэтика мифа / Е.М. Мелетинский. М.: Наука, 1976. – 400 с.; Мелихов Г.Ф. Миф. Идентичность. Знание / Г.В. Мелихов. Казань, гост. ун-т. Казань, 2001. – 41с.; Метафора в языке и тексте / В.Г. Гак, В.Н. Телия, Е.М. Вольф и др. – М.: Наука, 1988. – 176 с.; Панчехина М.Н. Магический реализм как художественный метод в романах М.А. Булгакова. – Диссертация на соискание ученой степени кандидата филологических наук: - Донецкий национальный университет. – Донецк, 2017. – 189 с.; Шамсутдинова Н.З. «Магический» реализм в современной британской литературе (Анжела Картер, Салман Рушди) – Диссертация на соискание ученой степени кандидата филологических наук: 10.01.03 – Литература народов стран зарубежья (европейская и американская литература) – М., 2008. – 24 с.; Ващенко А.В. Реализм и магия Рудольфо Анайи // Литературная учеба. 1989. № 4. С. 171-173; Воронченко Т.В. На перекрестке миров: мексикано-американский феномен в литературе США. Чита: Изд-во Забайкальс. Гос. пед. ун-та, 1998. 203 с.; Телегин С.М. Философия мифа. Введение в метод мифореставрации. М.: Община, 1994. 144 с.

⁴ Шукурова С. Жон Стейнбек ва Назар Эшонкул асарларида шахс эрки ва жамият муносабатларининг бадий-фалсафий талқини. Филология фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) илмий даражасини олиш учун ёзилган дисс... автореферати. – Бухоро. 2023. 49 б.; Ганиева О. Жон Стейнбек ҳамда Одил Ёқубов асарларида инсон ва жамият муносабатларининг тасвирланиши: Филол. фан. фал. д-ри (PhD) дисс. автореф. – Бухоро, 2021.

⁵ Одилов Ш. Кейинги йиллар ўзбек ҳикояларида замондошимиз образи (70-80-йиллар): фил. фан номз... дисс. — Тошкент, 1989. – Б. 161 ; Дўстмухаммедов Х. Ҳозирги ўзбек ҳикоячилигида бадий тафаккурнинг янги ланиши (80-йилларнинг иккинчи ярми ва 90-йиллар аввалидаги жикоялар мисолида): фил. фан. номз... дисс. – Тошкент, 1994.; Каримов Х. Ҳозирги ўзбек насрида ҳаёт ҳақиқати ва инсон концепцияси (70-80-йиллар): фил. фан. док... дисс. – Тошкент, 1994; Солижонов Й. XX асрнинг 80–90-йилларида ўзбек насрида бадий нутқ поэтикаси: фил. фан. док ... дисс. – Тошкент, 2002; Сатторова Г. 90- йиллар ўзбек ҳикоячилигида миллий характер муаммоси: фил. фан. номз... дисс. – Тошкент, 2002; Қобилова Н. Жек Лондон ва Абдулла Қаҳҳор ижодида бадий психологизм // фил. фан. бўйича фалс. док. (PhD) даражасини

Milliy adabiyotshunosligimizda bugungacha o‘zbek adiblari yoki shoirlarining O.Genri ijodidan ta’sirlanishi masalasi alohida o‘rganilmagan. Ammo adabiyotshunoslikning dunyoviy rivojida o‘zini oqlagan “ta’sir”, “o‘rganish”, yoki “ustoz-shogird” deyilmagan holda ham adabiy matnlarda ko‘zga tashlanadigan mushtarak, o‘xshash, hamohang jihatlar nuqtayi nazaridan har bir asarni tenglik asosida, adabiy parallellik tizimida o‘rganish, maxsus tadqiqot olib borish taqozo qilinadi.

Ushbu tadqiqotni yaratilishida nazariy asos sifatida I.Sulton, F.Sulaymonova, N.Komilov, N.Karimov, M.Xolbekov, M.Baqoyeva, D.Quronov, I.G‘aniyev, B.Karimov, A.Qosimov, U.Hamdammov, A.Saidov, U.Jo‘raqulov, G.Halliyeva kabi olimlarning ishlariga tayanildi⁷.

олиш учун ёзилган дисс. – Бухоро, 2018. –Б. 155; Матякупов С. Ҳозирги ўзбек ҳикояларида инсон концепцияси ва шахс бадиий талқини: фил.фан.номз...дисс. – Тошкент, 2006; Камилова С. XX аср охири – XXI аср бошлари рус ва ўзбек адабиётида ҳикоя жанри поэтикасининг ривожини: Филол. фан. докт. ...дисс. – Тошкент, 2016; Шералиева М. Ҳозирги ўзбек насрида киноя (ижтимоий-психологик омиллари, поэтик тизимдаги ўрни). – фил. фан. бўйича фалсафа докт. (PhD) илмий даражасини олиш учун ёзилган дисс. – Тошкент, 2008. –Б. 155 Кенжаева П. Ҳозирги ўзбек ҳикояларида қахрамон руҳиятини тасвирлаш тамойиллари: фил.фан.номз...дисс. – Тошкент, 2009; Тошпўлатов А. Ўзбек адабиётида новелла жанри ва унинг бадиияти (А.Қаҳҳор, Ш. Холмирзаев, Н. Эшонкул ижоди мисолида): фил. фан. бўйича фалсафа докт... дисс. автореф. – Самарқанд, 2018; Ҳамраев К. Ҳозирги ўзбек ҳикоясида композиция поэтикаси: фил. фан. бўйича фалсафа докт... дисс. автореф. –Тошкент, 2018; Холмирзаев Ш. Кечирасиз, жаноб Корпентер, вақтим зикроқ! // Ўзбекистон адабиёти ва санъати, 2000 йил 28 июль; Йўлдошев Қ. Ёниқ сўз. –Т.: Янги аср авлоди, 2006; Каримов Ҳ. Бугунги насрининг хусусияти ва тамойиллари // Шарқ юлдузи. 2010 й., 3-сон.

⁶ Содиков С. Абдулла Қаҳҳор ижоди ва адабий танқид: Фил. фанл. докт... дисс. – Т., 1997; Шодиев Н. Мастерство психологического анализа Абдуллы Каххара: Дисс.... канд.филол.наук. – Т., 1973; Юлдашев Н. Проблемы психологического анализа в узбекской прозе (Внутренний монолог в романах А.Кадыри, Айбека, А.Каххара, А.Якубова): Автореф.дисс...канд. филол. наук. – М., 1982; Норматова Ш. Поэтика рассказов Абдуллы Каххара (Мастерство повествования, своеобразие сюжетно-композиционного построения): Дисс... канд.филол.наук. – Т., 1990; Зиёдуллаева Н. Ўзбек адабиётшunosлигида иждокор биографиясини ўрганиш муаммолари (Абдулла Қаҳҳор ҳаёти ва ижоди асосида): Фил. фанл. номз... дисс. – Т., 2000; Шарафидинов О. Абдулла Қаҳҳор. – Т.: Ёш гавардия, 1988. – Б.43-44; Ҳамрақулова Ҳ. Абдулла Қаҳҳорнинг “Сароб” романида шахс фожиаси талқини: Филол. фан. номз. ... дисс. авторефер. – Т., 2004. – 17-б.; Чўлиева Н. “Иждокор маҳорати ва жанр поэтикаси” (Назар Эшонкул киссалари мисолида). Филология фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация. – Самарқанд. 2020. 157 б.; Саидмуродова С. “Назар Эшонкул асарларида бадиий психологизм”. Филология фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) илмий даражасини олиш учун ёзилган дисс... автореферати. – Термиз. 2022. 59 б.; ⁶ Рахматуллаев Н. Назар Эшонкул насри мифопоэтикаси. Филология фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертацияси. – Самарқанд. 2023. 142 б.; Шукурова С. Жон Стейнбек ва Назар Эшонкул асарларида шахс эрки ва жамият муносабатларининг бадиий-фалсафий талқини. Филология фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) илмий даражасини олиш учун ёзилган дисс... автореферати. – Бухоро. 2023. 49 б.; Каримов Ҳ. Ҳозирги ўзбек насрида ҳаёт ҳақиқати ва инсон концепцияси (70-80-йиллар): Филол. фан. д-ри ... дисс. – Тошкент, 1994; Солижонов Й. XX асрнинг 80–90-йилларида ўзбек насрида бадиий нутқ поэтикаси: Филол.фан. д-ри ... дисс. – Тошкент, 2002; Пардаева З. Ҳозирги ўзбек романчилигининг тараққиёт тамойиллари: Филол. фан. д-ри ... дисс. – Тошкент, 2003; Холмуродов А. Ўзбек киссачилиги: тараққиёт муаммолари (XX аср сўнгги чораги) Филол. фан. докт ...дис. – Т.: 2008; Бобохонов М. Ҳозирги ўзбек киссачилигида психологизм: фил. фан. номз. ...дис. – Т.: 2012; Холдоров Д. Ҳозирги ўзбек киссаларида бадиий услубмуаммоси (Шойим Бўтаев ва Назар Эшонкул киссалари мисолида): Филол. фан. бўйича фалсафа д-ри... дисс. автореф. – Тошкент, 2017; Холдоров Д. Ҳозирги ўзбек киссаларида бадиий услуб муаммоси (Шойим Бўтаев, Назар Эшонкул киссалари мисолида): Филол. фан. фалс. докт. ...дисс. – Тошкент, 2018; Раджабова Ф. Истиқлол даври ўзбек киссачилигида услуб ва поэтик тил: Филол. фан. фалс. докт. ...дисс. –Тошкент, 2018; Тошпўлатов А. Ўзбек адабиётида новелла жанри ва унинг бадиияти (А.Қаҳҳор, Ш. Холмирзаев, Н. Эшонкул ижоди мисолида): Филол. фан. бўйича фалсафа д-ри... дисс. автореф. – Самарқанд, 2018; Ҳамраев К. Ҳозирги ўзбек ҳикоясида композиция поэтикаси: Филол. фан. бўйича фалсафа д-ри... дисс. автореф. –Тошкент, 2018; Эшматова Ю. Истиқлол даври ўзбек киссачилигида аёл руҳиятининг бадиий талқини: Филол. фан. бўйича фалсафа д-ри... дисс. автореф. – Тошкент, 2020.

⁷Қаранг: Султон И. Адабиёт назарияси. – Тошкент. Ўқитувчи, 1987. – 390 б.; Сулаймонова Ф. Шарқ ва Ғарб. – Тошкент: Ўзбекистон, 1997. – 414 б.; Комилов Н. Тафаккур карвонлари. — Тошкент: Маънавият, 1999. –

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim yoki ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya Denov tadbirkorlik va pedagogika universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq, "G'arb-u Sharq adabiyotida adabiy an'analar sintezi" mavzusidagi ilmiy tadqiqotlar doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi. O.Genri ijodi va o'zbek hikoyachiligida insoniy taqdir, shaxs hamda jamiyat munosabatlarining o'ziga xos va mushtarak xususiyatlarini aniqlashdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

O. Genri ijodini o'zbek ijodkorlari asarlari bilan adabiy parallellikda o'rganish, asarlaridagi umumiylik va tipologik xususiyatlarni belgilash;

badiiy obrazning nazariy asoslari, O.Genri asarlaridagi qahramonlarning o'zbek adabiyotidagi personajlar bilan adabiy, g'oyaviy-badiiy hamohanglik tamoyillarini aniqlash;

Abdulla Qahhor, Xayriddin Sultonov, Nazar Eshonqul hamda Isajon Sulton kabi bir qator o'zbek adiblari ijodi misolida o'zbek nasrining Amerika adabiyotiga xos fazilatlarini interpretatsiya qilishlariga baho berish;

O.Genri ijodiga xos realistik obrazlarning o'zbek adabiyotidagi o'xshash tiplari faoliyatini ko'zdan kechirish, inson omilini, uning boy va murakkab olamini tasvirlashdagi psixologik san'atkorlik qirralarini aniqlash, AQSh va o'zbek adabiyotidagi badiiy sintez masalalariga oydinlik kiritish.

Tadqiqotning obyekti sifatida O.Genrining hikoyalari hamda qiyos uchun milliy adabiyotimiz vakillaridan Abdulla Qahhor, Xayriddin Sultonov, Nazar Eshonqul, Isajon Sulton hikoyalari tanlangan.

Tadqiqotning predmetini O.Genri ijodi va o'zbek hikoyachiligida insoniy taqdir, shaxs hamda jamiyat munosabatlarining o'ziga xos va mushtarak xususiyatlari tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiyada qiyosiy-tipologik, analitik, psixologik, chog'ishtirish, psixoanalitik usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

insoniy taqdir, shaxs va jamiyat munosabatlari O.Genri hikoyalarida insonning ichki dunyosi, shaxsiy kurashlari va jamiyat bilan munosabatlari, shaxs va jamiyat o'rtasidagi ziddiyatlar; o'zbek hikoyachiligida esa inson taqdirining

280 б.; Каримов Н. Пушкин ва ўзбек шеърляти. – Тошкент: , 1997. – 1980.; Холбеков М. Структур тилшунослик. Рисола. – Тошкент: . Фан, 2014.; Шу муаллиф. XX аср жаҳон адабиёти манзаралари. – Тошкент. Мумтоз сўз. 2020. – 700 б.; Бақоева М. Инглиз ва Америка адабиётидан шеърлий таржима ва қиёсий шеършунослик муаммолари. – Тошкент: Фан. 2015.; Қуроноф Д. Адабиёт назарияси асослари. – Тошкент: Академнашр, 2018.; Қуроноф Д. Раҳмонов Б. Ғарб адабий-танқидий тарихи очерклари. – Т.: Фан, 2008.; Ғаниев И. Стендал ва Қодирий. – Тошкент. Академнашр. 2011. –56 б.; .; Ғаниев И. Қиёсий адабиётшунослик. – Бухоро. Дурдона, 2023. – 184 б.; Ғаниев И. Чингиз Айтматов ва XXI аср. – Тошкент. Академнашр. 2013. –278 б.; Каримов Б. Абдулло Қодирий феномени. – Тошкент. Фан, 2020.; Қосимов А. Адабиётда типологик ўхшашлик ва адабий таъсир. – Тошкент: Фан, 2004.; Қосимов А., Ҳўжаев С. XX аср Ғарб адабиёти. – Т.: Академнашр, 2011.; Ҳамдамов У, Қосимов А. Жаҳон адабиёти. Ўқув қўлланма. – Тошкент. Barkamol fayz media, 2017.; Саидов А. Қиёсий адабиётшуносликка кириш. – Тошкент. Ғ.Ғулом номидаги Н.М.И.Уйи, 2020.; Жўрақулов У. Назарий поэтика масалалари: Муаллиф. Жанр. Хронотоп. – Т.: Ғафур Ғулом, 2015.; Ҳаллиева Г. Қиёсий адабиётшунослик. – Тошкент: – Тошкент: Турон-замин зиё, 2015.

murakkabligi va uning o'zgaruvchanligi, an'ana va qadriyatlar bilan bog'liqligi yetakchiligida namoyon bo'lishi aniqlangan;

O.Genri hikoyalarida chinakam amerikaliklar ruhi, tashvishlari va kamchiliklari, jamiyatni bir chekkasidan yemirayotgan illatlar, aholining boylik, shuhrat, mansabu unvon ilinjidagi turmush tarzi achchiq kesatiqlar, kulgili iztiroblar, kinoyalar kabi tasvir elementlarining ustivorligida voqelanishi dalillangan;

adabiy obrazlar holati, makon-zamon, milliy o'ziga xosliklar (amerikalik - o'zbek kishisi timsoli) boshqa-boshqa bo'lgani holda, umuminsoniy g'oyalar va odatlar, poetik mahorat, milliy qadriyat va mentalitetni aks ettiruvchi tasvir va detallar kesimida o'zaro uyg'unligi O.Genri hamda Abdulla Qahhor, Xayriddin Sulstonov, Nazar Eshonqul, Isajon Sulston singari o'zbek adiblarining hikoyanavislik mahorati asosida isbotlangan;

O.Genri va o'zbek hikoyanavislarining xarakter yaratish mahorati, voqealar rivoji va yechim paradoksi, hikoyada konflikt va insoniy taqdir, ijtimoiy motivlar, uslub va individuallik, ingliz va o'zbek hikoyachiligida ijtimoiy muammolarning badiiy sintezi, hikoyalarda voqelikni badiiy idrok etishda detal va tasvirlar orqali ifodalanishi asoslangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

AQSH va o'zbek adabiyotida realistik hikoya taraqqiyoti, AQSH hikoyachilik maktabi, adabiy ta'sir va o'ziga xoslik, O.Genri ijodi va milliy adabiy jarayon masallari tahlillar asosida aniq ko'rsatilgan;

hikoyada insoniy taqdirlarning badiiy talqini, O.Genri va o'zbek hikoyanavislarining xarakter yaratish mahoratida ko'zga tashlanadigan mushtaraklik va o'ziga xosliklar, voqealar rivoji va yechim paradoksi qiyosiy tahlillar jarayonida o'z aksini topganligi asoslangan;

ingliz va o'zbek hikoyachiligida ijtimoiy muammolarning badiiy sintezi, hikoyada konflikt va insoniy taqdir, adabiy ta'sir va milliy mentalitet kabi muammolar tadqiq etilib, o'z yechimini topganligi dalillangan;

ijtimoiy motivlar, uslub va individuallik, hikoyalarda voqelikni badiiy idrok etishda detal va tasvir munosabatlari O.Genri va Abdulla Qahhor, Xayriddin Sulstonov, Nazar Eshonqul, Isajon Sulston hikoyalari o'zaro qiyoslab o'rganilib, mushtarak va o'ziga xos individual jihatlar tahlillar asosida aniqlangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi dissertatsiyada muammoning aniq qo'yilganligi, nazariy ma'lumotlarning mavjud ilmiy manbalardan olinganligi, keltirilgan tahlillarning qiyosiy-tipologik, analitik, psixologik, chog'ishtirish, psixoanalitik tahlil usullari vositasida asoslanganligi, ilmiy fikr va xulosalarning amaliyotga joriy etilganligi, olingan natijalarning vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati qiyosiy adabiyotshunoslik sohasida mavjud muammolarni tadqiq qilish, AQSH va o'zbek adabiyoti namunalarini ilmiy jihatdan qiyosiy o'rganish, O.Genri va Abdulla Qahhor, Xayriddin Sulstonov, Nazar Eshonqul, Isajon Sulston hikoyalaridagi xarakter yaratish mahorati, tasvir va detal, milliy mentalitet yuzasidan mushtarak hamda farqli tomonlarini, adabiy ta'sir va o'ziga xoslik

masalalarini, O.Genri ijodi va milliy adabiy jarayonni o'rganish imkonini berishi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati qiyosiy adabiyotshunoslik, adabiy aloqalar, tarjimachilik va jahon adabiyoti, badiiy obraz poetikasi, ijtimoiy motivlar, uslub va individuallik, hikoyalarda voqelikni badiiy idrok etishda detal va tasvir, voqealar rivoji va yechim paradoksi munosabatlari muammolariga doir tadqiqotlarda hamda qiyosiy tipologik muammolarini o'rganishda qo'l kelishi, oliy o'quv yurtlari uchun darslik, o'quv hamda uslubiy qo'llanmalar yaratishda manba sifatida xizmat qilishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. O. Genri ijodi va o'zbek hikoyachiligida insoniy taqdirlar, shaxs hamda jamiyat munosabatlarining o'ziga xos va mushtarak xususiyatlari bo'yicha erishilgan ilmiy natijalar asosida:

insoniy taqdirlar, shaxs va jamiyat munosabatlari O.Genri hikoyalarida insonning ichki dunyosi, shaxsiy kurashlari va jamiyat bilan munosabatlari, shaxs va jamiyat o'rtasidagi ziddiyatlar; o'zbek hikoyachiligida esa inson taqdirining murakkabligi va uning o'zgaruvchanligi, an'ana va qadriyatlar bilan bog'liqligi yetakchiligida namoyon bo'lishiga doir nazariy xulosalardan Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetida 2021-2023-yillarda bajarilgan PF-201912258 "O'zbek adabiyotining ko'p tilli (o'zbek, rus, ingliz tillarida) elektron platformasini yaratish" mavzusidagi fundamental ilmiy loyihani bajarishda foydalanilgan (Alisher Navoiy nomidagi o'zbek tili va adabiyoti universitetining 2024-yil 26-avgustdagi №04/1-2184-son ma'lumotnomasi). Natijada jahon adabiyotshunosligida shakllangan adabiy o'xshashlik, adabiy mushtaraklik, adabiy parallellik kategoriyalari asosida O. Genre ijodi hamda o'zbek milliy adabiyoti namunalari qiyoslanishi haqidagi qarashlar mukammallashgan;

O.Genri hikoyalarida chinakam amerikaliklar ruhi, tashvishlari va kamchiliklari, jamiyatni bir chekkasidan yemirayotgan illatlar, aholining boylik, shuhrat, mansabu unvon ilinjidagi turmush tarzi achchiq kesatiqlar, kulgili iztiroblar, kinoyalar kabi tasvir elementlarining ustivorligida voqelanishiga oid nazariy xulosalardan Qozog'iston Respublikasi M.O.Avezov nomidagi Adabiyot va san'at institutida 2020-2022-yillarda bajarilgan AP08855741 "Рукописное наследие Казахстана как парадигма "Духовного возрождения" нации: сбор, хранение, цифровизация, систематизация, создание электронного каталога, публикация и исследование" mavzusidagi fundamental ilmiy loyihani bajarishda foydalanilgan (Qozog'iston Respublikasi M.O.Avezov nomidagi adabiyot va san'at institutining 2024-yil 6-sentyabrdagi №060/339-son ma'lumotnomasi), Natijada O.Genri va o'zbek hikoyanavislarining xarakter yaratish mahorati, voqealar rivoji va yechim paradoksi, hikoyada konflikt va insoniy taqdirlar, ijtimoiy motivlar, uslub va individuallik, ingliz va o'zbek hikoyachiligida ijtimoiy muammolarning badiiy sintezi, hikoyalarda voqelikni badiiy idrok etishda detal va tasvir masalalari aniq misollar yordamida tahlil qilishga erishilgan;

adabiy obrazlar holati, makon-zamon, milliy o'ziga xosliklar (AQSH - o'zbek kishisi timsoli) boshqa-boshqa bo'lgani holda, umuminsoniy g'oyalar va odatlar, poetik mahorat, milliy qadriyat va mentalitetni aks ettiruvchi tasvir va

detallar kesimida o‘zaro uyg‘unligi O.Genri hamda o‘zbek adiblari Abdulla Qahhor, Xayriddin Sultonov, Nazar Eshonqul, Isajon Sulton hikoyanavislik mahorati bilan bog‘liq xulosa va natijalardan Surxondaryo viloyat teleradiokompaniyasida “Bir asar sharhi” ko‘rsatuvi ssenariysini tayyorlashda foydalanilgan (Surxondaryo viloyati teleradiokompaniyasining 2024-yil 10-sentyabrdagi №01-02/38-son ma’lumotnomasi). Natijada ushbu teleko‘rsatuvlar uchun tayyorlangan materiallarning mazmuni mukamallashtirilib, ilmiy dalillarga boy bo‘lishiga, ko‘rsatuvning ilmiy-ommaboplik xususiyati oshirilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 10 ta, jumladan, 3 ta xalqaro va 7 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinganligi. Tadqiqot mavzusi bo‘yicha jami 19 ta ilmiy ish, jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 9 ta, jumladan, 5 tasi respublika va 4 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uch asosiy bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan iborat bo‘lib, 162 sahifani tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Tadqiqotning “Kirish” qismida ishning dolzarbligi va zarurati, muammoning o‘rganilish darajasi, ilmiy yangiligi, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining asosiy ustuvor yo‘nalishlariga bog‘liqligi, obykti, predmeti, metodlari, maqsad va vazifalari aniqlangan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati, amaliyotga joriy qilingani, aprobatsiyasi, nashr etilgan ishlar hamda dissertatsiyaning tuzilishi bo‘yicha ma’lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning “**AQSH va o‘zbek adabiyotida realistik hikoya taraqqiyoti: adabiy ta’sir va o‘ziga xoslik**” deb nomlangan dastlabki bobi uch faslni o‘z ichiga olgan. Bobning birinchi faslida “AQSH hikoyachilik maktabi va O.Genri ijodi” ilmiy muammo sifatida tahlilga tortiladi.

Dunyo adabiyoti kontekstida AQSH adabiyoti o‘z o‘rniga ega, ta’sir darajasi yuqori bo‘lgan, shaxs va jamiyat masalalari yaqqol aks etgan xalqchil adabiyotlar sirasiga kiradi. Jahon adabiyoti tarixida qolish imkonini beruvchi adabiyot AQShda faqat XIX asrda, V.Irving, J.F.Kuper kabi qator yozuvchilar adabiy maydonga kirib kelgan paytdan boshlandi. Bunga qadar bu qit’ada ko‘chmanchilarning kundaliklari, eslatmalari, xronikalari mavjud edi. Ko‘chmanchilarining yangi yerlarga joylashishning og‘ir va azobli kunlari haqidagi Amerikaning XVII asrdagi hayotiy lavhalari aks etgan hikoyalari sifatida ushbu kundaliklar ham noyob manbadir.⁸

⁸ XIX-XX asr boshlarida Amerika adabiyoti. 19-asr oxiri AQSh adabiyotining eng yaxshi tan olingan va tan olinmagan amerikalik yozuvchilari <https://gigafox.ru/uz/planning/amerikanskaya-literatura-na-rubezhe-xix-xx-vekov-literatura-ssha/>

Yozuvchining asarlarida realistik voqealar aniq, hayotiy, gohida yengil va zaharxanda kinoyaviy usulda yozilgani bilan diqqatni tortadi. Adabiyotshunos A. Saidov u haqda shunday yozadi: “AQSH hikoyanavisligining umume’tirof etilgan eng mohir namoyondalaridan yana biri – O.Genridir. Uning novellalari uchun juda nozik va kutilmagan yakunlar xosdir. Ushbu ijodkor tarjimai holi bilan yaxshi tanish bo‘lganlar adibning o‘z noshirlaridan doim qarzidor bo‘lganidan xabardorlar. Shu sababli O.Genri har kuni “Sunday world” gazetasi uchun bitta hikoya yozib berishi shart bo‘lgan. Ana shunday murakkab va tig‘iz holatda bo‘lishiga qaramasdan, O.Genri jahon hikoyanavisligida munosib o‘rin egallagan ko‘plab hikoyalar bitgan”⁹

O.Genri hikoyalari ifodaning ixchamligi, realizm elementlarining ustuvorlik kasb etishi, voqea hodisalar ko‘lamining aniqligi diqqatni tortadi. Ijodkor hikoyalarida atigi ikki yoki uch betdan iborat. Uning “Jefferson Piters magnitining siri”, “So‘nggi yaproq” kabi hikoyalarining hajmi bir muncha kattaroq. Hikoyalarni o‘qish jarayonida shunga ishonch hosil qilish mumkinki, asar hajmining yiriklashishiga ikkita omil sabab bo‘ladi: birinchisi, obrazlar sonining ko‘pligi bo‘lsa, ikkinchidan, tasvir ko‘lamining kengligidadir. “Qirollar va karam” (1904) romani Lotin Amerikasida sodir bo‘lgan voqea syujeti bilan shartli ravishda bog‘langan sarguzashtli hazil-qissalardan iborat.

Ushbu bobning ikkinchi fasli “O.Genri ijodi va milliy adabiy jarayon” va o‘ziga xosliklari” deb nomlanadi. XX asr o‘zbek milliy adabiy jarayonida O.Genri ta’siri yaqqol sezilib turadigan yoki o‘zaro tipologik mushtarakliklar kuzatiladigan asarlar, hikoyalar ko‘plab uchraydi. Jumladan, A.Qahhorning “Anor”, “Bemor”, “Dahshat”, “Mayiz yemagan xotin”; G.G‘ulomning “O‘g‘rigina bolam”; Sh.Xolmirzayevning “Notanish odam”, “Bulut to‘sgan oy”, “Ot egasi” kabi qator hikoyalarida Genri ijodidan ta’sirlanganlik ko‘zga tashlanadi.

O.Genrining “Shaftoli va po‘rtahol” hikoyasida bir erkakning o‘z jufti haloli oldidagi burchi, mehr-muhabbati, or-nomus va qadr-qimmat, oliyjanoblik kabi bir qator hayotiy masalalarga badiiy tus beriladi. Kichkintoy Mak-Garri o‘zining yaqindagina turmush qurgan rafikasi bilan asaloyida o‘tayotgan kunlarining birida, kechki mahal u o‘zining shaftoli yeyish istagini bildiradi.

“Precious,” said she, with the air of Cleopatra asking Antony for Rome done up in tissue paper and delivered at residence, “I think I would like a peach.”

Kid McGarry arose and put on his coat and hat. He was serious, shaven, sentimental, ans spy”¹⁰.

“Azizim, -- dedi u, Rim uning huzuriga asl holatida keltirilishi uchun Antonioga istak bildirgan Kleopatraday. – Azizim, shaftoli yesam bo‘larmidi?

Kichkintoy Mak-Garri o‘rnidan turib, palto va shlyapasini kiydi. U jiddiy kelishgan, ko‘ngilchan va zehni o‘tkir edi”¹¹.

⁹ Saidov A. Қиёсий адабиётшуносликка кириш. – Тошкент: F.Фулум номидаги нашриёт матбаа ижодий уйи, 2020. 589-590-бет

¹⁰Henry, O. (1917). Little Speck in Garnered Fruit. In Vitagraph Company in America. Broadway Star Features. P-2.

¹¹ O.Henri. Yigirma yildan so‘ng. – Toshkent. Yangi asr avlodi, 2023. 57-bet

U uzoq vaqt qolib ketsa ham, rafiqasini istagini bajo keltiradi. ming mashaqqatlar bilan unga bir dona shaftoli topib kelib uzatadi. Ammo yosh kelin, kichkintoy bokschi kutgani kabi uni xizmatiga, mehnatiga, bosib o'tgan mashaqqatlariga munosib, qoniqtiruvchchi baho bermaydi, aksincha, bee'tiborlik va takabburlik bilan “– Yaramas kichkintoyim! – oshiqona ming‘illadi kelinchak. – Nahotki, shaftoli so‘ragan bo‘lsam? Men jon deb po‘rtahol yegan bo‘lardim.”¹², deydi.

O‘zbek adabiy jarayonida ham shu hikoya va boshqalariga o‘xshash asar Abdulla Qahhor ijodida ham uchraydi. Misol tariqasida, yozuvchining birgina “Anor” hikoyasini olib qaraydigan bo‘lsak, bu hikoya syujet jihatidan O. Genrining yuqorida tahlilga tortilgan “Shaftoli va Po‘rtahol” hikoyasiga yaqin turishini ilg‘ash mumkin. Albatta, yuqoridagi asarda keltirilgan holatdan Abdulla Qahhor hikoyasidagi ijtimoiy muhit keskin farqlanadi. Kichkintoy Jek-Garri iqtisodiy tomondan ancha mukammal shaxsdir. Uning xotini aytgan har qanday yehtiyojni qondira olish imkoni bor, ammo Turobjonda bunday emas, suv tashib, o‘tin yorib, o‘t yoqib topadigan o‘n sakkiz tanga puli ro‘zg‘orni zo‘rg‘a tebratishga yetadi. Shuningdek, mazkur faslda O.Genrining “Darddoshlar” hikoyasi G‘afur G‘ulomning “Mening o‘g‘rigina bolam” hikoyasi, “Yashil eshik” hikoyasi bilan Shukur Xolmirzayevning “Notanish odam” hikoyalari muqoyasa etildi.

Bobning uchinchi fasli “Adabiy ta’sir va milliy mentalitet” deb nomlangan. Hech qaysi ijodkor o‘z xalqiga xos bo‘lgan milliylik tashqarida asar yarata olmaydi. Zero, oldingi faslda biz A.Qahhorning “Anor” hikoyasida O.Genrining “Shaftoli va po‘rtahol” hikoyasining ta’sirining yaqqol sezilib turishini tahlillar misolida qayd etib o‘tgandik. Agar milliy mentalitet masalasi bo‘lmaganida edi, “Anor” hikoyasining originalligi ko‘zga tashlanmas, taqlidan yozilgan bir ko‘chirma asar o‘laroq taassurot qoldirishi mumkin edi.

“Uloqda” hikoyasi ham O.Genri hikoyalari singari qisqa, ixcham va shu bilan birga, kutilmagan yechim bilan yakunlanadi. Tipologik o‘xshashlik masalasi bilan birgalikda o‘zbek xalqiga xos bo‘lgan milliy mentalitet ham hikoyaning ilk matnlaridayoq diqqatni tortadi. “Kecha dadamdan so‘rab qo‘yganim uchun bugun akam ham “kerak emas, borma” degan jerkishini qilmadi. Choyni naridan-beri ichib, otxonaga yugurdim”¹³. O‘zbek xalqi oilalarida ma’lumki otaga nisbatan hurmat va izzat jud ulug‘ estetik axloq darajasiga ko‘tarilgan. O. Genrining, ayniqsa, “Diydor” hikoyasida ota va bola munosabatlari, nafaqat, milliy, balki umummilliy mentalitet sifatida ham yorqin aks etgan. Hikoya dadasini ishdan qaytishini intizorlik bilan kutayotgan bolaning endigina ishdan qaytgan otasi bilan o‘zaro suhbatidan boshlanadi.

“ – Salom, dada! – dedi u quvonchdan ko‘zlari porlab.

– Salom, bo‘talog‘im, haliyam yotmadingmi?

– Yo‘q, deya javob berdi bola va sabrsizlik bilan so‘radi: – dada, maylimi, sizga savol bersam?”

¹² O.Henri. Yigirma yildan so‘ng. – Toshkent. Yangi asr avlodi, 2023. 62-bet

¹³ Qodiriy A. Jinlar bazmi. Hikoyalar. – Toshkent. «cho‘lpon» nashriyoti, 2004. 5-bet

Ko‘rinib turibdiki, Amerika milliy mentalitetida hatto bolakay o‘z oilasidan, yolg‘iz o‘zlari hamda bir oila bo‘lishiga qaramasdan o‘z otasiga savol berish uchun ruxsat so‘ramoqda. Bu Amerikaliklarga xos bo‘lgan go‘zal tabiya va mentalitetning ifodasidir. Shuningdek, e‘tibor berish kerakki, ota va bola huddi o‘zbek oilalari singari bir-birlarin ko‘rishlari bilanoq birinchi aytgan so‘zlari salomlashuv bo‘lmoqda. Bundan tashqari, ushbu faslda Cho‘lponning “Qor qo‘ynida lola” hikoyasi bilan O.Genrining “Xotira yo‘qolganda” hikoyalari, Abdulla Qahhorning “Dumli odamlar” hikoyasi bilan bir qator hikoyalar adabiy ta‘sir va milliy mentalitet nuqtayi nazaridan qiyoslandi.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi **“Hikoyada insoniy taqdirlarning badiiy talqini va yechim”** deb nomlangan. Mazkur bobning dastlabki “O.Genri va o‘zbek hikoyanavislarining xarakter yaratish mahorati: mushtaraklik va o‘ziga xoslik” deb nomlangan faslida O.Genri va o‘zbek adiblarining xarakter yaratish mahorati qiyosiy tahlilga tortilgan. O. Genrining “Yo‘l aylanib” hikoyasi qahramoni Sem Uyebber obrazi hikoyaga qanday xarakterda kirib kelgan bo‘lsa, so‘ngiga qadar shu holicha qoladi. Chunki hikoyalarda, xarakterlar o‘shishi kerak degan qoida yoki talab mavjud emas, shuningdek, hajm jihatdan cheklanganligi ham bunga sabab bo‘ladi. Xarakterlar narsa hikoyaning g‘oyasi yoki yozuvchining badiiy niyatiga ko‘ra amalga oshadi va shakllantiriladi.

“Yaxshilab o‘nglanmagan maykasi ustidan chala yarim solingan ko‘ylagi notekis hilvirar edi. Semnin baquvvat adl qomatini tuzukina yashirib turgan “tayyor qo‘ldan oigan” kulrang kostyum bu qo‘ysevar cho‘ponning har doimgidek alpon-talpon qilib yurishiga ancha monelik qilardi. Balki, engil-boshidagi shuncha noqulaylik sababmi, Semning qoraygan yuzlarida xuddi qamoqda begunoh jabr tortib yotgan mahbusnikiday qayg‘uli manzara qotib qolgandi”¹⁴.

Ko‘rinib turibdiki, matndagi ishoralardan yozuvchi Semning tabiatiga ishora qilmoqda. Sem tashqi ko‘rinishi o‘zgartirishga, ko‘rkam va kelishgan yigit bo‘lishga qanchalik urinmasin, uning tabiati, xulq-atvoriga bu yot bo‘lgani uchun zidlik paydo bo‘lmoqda. Buni uning xotini, Marti ham yaxshigina ilg‘aydi. “Bu tarovatingda, Sem, – dedi u gap ohangini ataylab cho‘zib, – Texasning manaman degan cho‘ponidan ko‘ra, ko‘proq shu ranchongda o‘sib yotgan o‘t-alafga o‘xshab ko‘rinyapsan”.¹⁵

Hikoya qahramoni voqealar rivoji davomida, ayniqsa kulminatsion nuqtada o‘zgargandek, xatolarini, o‘zining nuqsonlarini tushunib yetgan kabi ko‘rinsa-da, o‘zgarmaydi. Egnidagi po‘rim kiyimlar loy va balchiqda bulg‘angani kabi, u ham tezda o‘z holi, tabiatiga qaytadi. Hikoyada, yozuvchi Sem obrazining xarakteriga urg‘u beradi va uning o‘ziga xos, individual xulq-atvori, illatlari bilan obrazdan xarakter darajasiga ko‘taradi. Bu holatni A.Qahhorning “Nurli cho‘qqilar” va “San’atkor” hikoyalarida ham ko‘rishimiz mumkin. Shuningdek mazkur faslda o‘svuchi obrazlarni O.Genrining “Haqiqiy sihatgoh”, Xayriddin Sultonovning

¹⁴ O.Henri. Yigirma yildan so‘ng. – Toshkent. Yangi asr avlodi, 2023. 9-bet

¹⁵ O.Henri. Yigirma yildan so‘ng. – Toshkent. Yangi asr avlodi, 2023. 9-bet

“Yo‘qchilik va to‘qchilik”, N.Eshonqulning “Bahouddinning iti” singari hikoyalari muammo nuqtayi nazaridan tahlilga tortildi.

Ikkinchi bobning ikkinchi fasli “Voqealar rivoji va yechim paradoksi” deb nomlangan. O. Genri hikoyalarining hammasida deyarli voqealar rivoji shiddatli kechadi. Hatto ba’zi o‘rinlarda bir necha bor kulminatsion nuqtalarni ko‘rish ham mumkin.

O. Genrining “Kaktus” hikoyasini misol tariqasida oldigan bo‘lsak, syujet voqealari tugundan boshlanib, so‘ng voqealar rivojiga o‘tiladi. Tugun hikoyaning yo‘nalishini boshlab beruvchi bir vosita sifatida hamda sirlilik va qiziqarlilikni ta‘minlovchi tarkibiy qismdir. Hikoya to‘y marosimida ishtirok etayotgan yigitlar holati va suhbatini tasvirlashdan boshlanadi. Bu yigitlardan biri, to‘yi bo‘layotgan qiz bilan yaqin kunlarga oshiq-ma‘shuq edilar. Voqealar rivoji shu yigitning – Trisdalning o‘ylari, xayollari bilan boshlanadi. Asosiy voqealar rivoji uning xayolida kechadi. Hikoyaning qahramoni Trisdal ismli yigitning sevgiligi boshqa yigitga turmushga chiqib ketadi. U qizning turmushga chiqayotganidan alamzada, uni bevafoqlikda ayblab, o‘zining nuqsonlarini ko‘rmaydi. Hikoya quyidagi jumlar bilan kutilmagan yakun topadi.

“No,” said Trysdale, with the bitter wraith of a smile-“Is it Spanish?”

“Yes. The natives imagine the leaves are reaching out and beckoning to you. They call it by this name-Ventomarme. Name means in English, “Come and take me” .

“Mana bu yerga gulning nomi ham yorishtirib qo‘yilibdi-ku! Siz ispanchani bilmaysizmi, Trisdal?”

“Yo‘q, dedi, Trisdal achchiq kulimsiragancha, -- bu ispanchamidi hali?”

“Ha-da. Ispanlar kaktusni mazkur turi yaproqlarini go‘yoki, siz tomon qo‘llarini cho‘zib, nimagadir ishora berayotganday, deb faraz qilishadi. Inglizchada qanday ma‘no anglatishini bilasizmi siz? “Ventomerme” – inglizchada” kelib meni olib ket”, degani bo‘ladi...”.

Kelinning akasidan eshitgan bu javob hikoya uchun kutilmagan paradoks uslubidagi yechim. Faslda O. Genrining “Bekatda”, Abdulla Qahhorning “Karavot”, Xayriddin Sultonovning “Uch xurmo”, Nazar Eshonqulning “Shamolni tutib bo‘lmaydi” kabi hikoyalari muammo nuqtayi nazaridan tahlil qilindi.

Ikkinchi bobning uchunchi fasli “Insoniy taqdirlar: konflikt va psixologizm” deb nomlangan. Yozuvchi hikoyalariga, obrazlariga xos konflikt o‘ta keskinligi va shiddatligi bilan individuallik kasb etadi. Adibning “Yo‘l aylanib” hikoyasi qahramonlari Sem va uning xotini Marta orasida konflikt avval boshdayoq ko‘zga tashlanadi. Marta dunyoqarashi keng, madaniyatli, axloqli va sabrli ayol. U o‘zining farqli dunoqarashi bilan Semning chakalakzorlar va botqoqlikdan iborat bo‘lgan bu jonjon maskaniga, shuningdek, dunyoqarashi ham o‘zining maskanidan qolishmaydigan Semning beso‘naqay gavdasi-yu, bu gavdasiga monand qo‘polliklariga, befarqligiga sira ko‘nika olmagan. Ular bir-biri bilan inoq

bo'la olmaydigan ikki xil ruhiyat odamlari, ularning o'zlariga xos psixologiyasi harakatlari va gap-so'zlarida yaqqol ko'rinib turadi.

“Har doim mutolaamning beliga tepasan. O'qiydigan bir dunyo kitoblarim bor. Buning ustiga men istagan paytimda xohlaganimcha mutolaa qilaman. Bu havoyi va tashlandiq qishlog'ingda na gaplashgulik va na eshitgulik bir qiziq odaming bo'lmasa, boshqa yana qanday vaqtichog'lik bo'lsin? Hatto sen bilan ham beg'alva gaplashib bo'lmasa, qachon qarasa noliganing noligan, noliganing-noligan-a!”¹⁶ Aytish mumkinki, bu ikki qahramon qarama-qarshi qutb vakillari bo'lgani uchun ham ularning o'rtasida davomli ziddiyat mavjud. O.Genri hikoyalari hayotiy me'zonlarga asoslanadi, adibning hikoyalarida insonlar taqdiri ertaklar singari yaxshilik bilan tugayvermaydi. Aksincha, barcha qahramonlar taqdiri, ularning psixologiyasi va ziddiyatli to'qnashuvlari tabiiy va ishonarli, hech qanday ortiqcha bo'yoqlar va bo'rttirishlarsiz talqin etiladi.

